




**MODELS AND METHODS FOR  
INCREASING THE EFFICIENCY OF  
INNOVATIVE RESEARCH**  
**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-ONLINE  
CONFERENCE**



[WWW.INTERONCONF.ORG](http://WWW.INTERONCONF.ORG)



**ISBN 978-955-3605-86-4**

© Sp. z o. o. "CAN", 2021

© Authors, 2021

**MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH:** a collection scientific works of the International scientific conference (11 December, 2021) - Copenhagen:2021. ISSUE 6 – 298 p.

Editorial board:

**Alexander Dietrich**

ICRA 2021 Editors

German Aerospace Center (DLR)

Oberpfaffenhofen, Germany

**Davide Scaramuzza**

ICRA 2021 Editors

University of Zurich

Zurich, Switzerland

**Tomohiro Kawahara**

ICRA 2021 Editors

Kyushu Institute of Technology, Frontier Research Academy for Young Researchers

Fukuoka, Japan

**Barbara Caputo**

ICRA 2020 Editors

Sapienza Rome University

Rome, Italy

**Jana Kosecka**

ICRA 2021 Editors

George Mason University,

Fairfax (VA), USA

**Wolfram Burgard**

ICRA 2018 Editors

Toyota Research Institute and University of Freiburg

Freiburg, Germany

Languages of publication: Deutsche, English, Русский, Limba română, uzbek,

The compilation consists of scientific researches of scientists, post-graduate students and students who participated International Scientific Conference " MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH ". Which took place in BERLIN on 11- December, 2021.

Tagungsbände werden für Wissenschaftler und Lehrende an Hochschulen empfohlen. Sie können in der Ausbildung eingesetzt werden, einschließlich der Lehre im Aufbaustudium, der Vorbereitung auf den Erwerb von Bachelor-und Master-Abschlüssen. Die Begutachtung aller Artikel wurde von Experten durchgeführt, die Materialien unterliegen dem Copyright der Autoren. Für Inhalt, Prüfungsergebnisse und Fehler sind die Autoren verantwortlich.





# **PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS**

**VOLUME 1 , ISSUE 6  
DECEMBER 2021**

**Collection of Scientific Works**

**BERLIN 11 DECEMBER 2021**



## TABLE OF CONTENTS

<b>Тўраева Г.Э</b>	<b>8</b>
<b>ЎҚУВЧИ-ТАЛАБАДА ТАНҚИДИЙ ФИКРЛАШНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ</b>	
<b>Abduazizov Begzod Tursunqulovich</b>	<b>11</b>
<b>Umarov Shaxriddin Baxriddin o`g`li</b>	
<b>Ergashev Nurbek To`raqul o`gli</b>	
<b>FUQARO MUHOFAZASINING IQTISODIYOT TARMOQLARIDAGI TASHKILIY STRUKTURALARI.</b>	
<b>Yusupov Arabboy</b>	<b>20</b>
<b>ALIXON TURA SOG`UNUNNING SHERYATI</b>	
<b>F.D. Shermanova</b>	<b>24</b>
<b>EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN IN THE FAMILY IN A MEDIA EDUCATIONAL ENVIRONMENT</b>	
<b>Azimova Matluba Hakimovna</b>	<b>29</b>
<b>ADVANCED PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION</b>	
<b>Murodov G`ayrat Nekovich</b>	<b>32</b>
<b>Shukurova Bahor Boltayevna</b>	
<b>BADIY ADABIYOTNING TASVIR OB`EKTI, MA`RIFIY VA ESTETIK AHAMIYATI</b>	
<b>Jo`rayeva Marvaridxon Dilmurodjon qizi</b>	<b>37</b>
<b>BERDAQ – DEMOKRAT SHOIR, ADOLAT KUYCHISIDIR</b>	
<b>Nilufar Qodiraliyeva</b>	<b>42</b>
<b>Shahloza Karimova</b>	
<b>CLASSROOM OBSERVATION: QUESTIONNAIRES</b>	
<b>Tokhirov Khabibullo Tokhirjon ugli</b>	<b>45</b>
<b>DRUGS - THE PLAGUE OF THE CENTURY</b>	
<b>Atrikova Sharofat</b>	<b>48</b>
<b>To`laganova Nigora</b>	
<b>BOTULISM - CAUSES, RISK FACTORS, TYPES, SYMPTOMS, DIAGNOSIS AND TREATMENT</b>	
<b>Saidova Gulrux</b>	<b>51</b>
<b>To`raqulova Dilfuza</b>	
<b>SKIN AND UMBILICAL DISEASES IN INFANTS. SEPSIS.</b>	
<b>Salohiddinov Safarali Shodibek o`g`li</b>	<b>54</b>
<b>IKKI FUQAROLIK TO`G`RISIDA VA O`ZBEKİSTONDA UNİNG AHAMIYATI</b>	
<b>Jakbarov Musokhon Pulotovich</b>	<b>57</b>
<b>EFFECTIVE METHODS FOR COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING</b>	
<b>Jumaniyazova Dilnoza Alimbo耶evna</b>	<b>61</b>
<b>O`ZBEK TILIDA UCHROVCHI SANSKRITCHA O`ZLASHMALARNING SEMANTIKASI XUSUSIDA</b>	
<b>Mamaraimova Dildora Bakhtiyorovna</b>	<b>64</b>
<b>DEFINITIONS OF INTERACTIVE LEARNING</b>	
<b>Xojiakbar Muxamadiyev Asliddinovich</b>	<b>67</b>
<b>Inomova Mafto`na Bahrom qizi</b>	
<b>HUQUQ-TARTIBOT ORGANLARI VA SUD TIZIMIDAGI O`ZGARISHLAR</b>	
<b>Muinova Gulchekhra Majidovna</b>	<b>70</b>
<b>PECULIARITY OF ENGLISH SPELLING</b>	
<b>Valikhanova Muazzam Alievna</b>	<b>73</b>
<b>MONOLOGICAL AND DIALOGICAL SPEECH</b>	
<b>Jumaboyeva Nilufar Soyibjon qizi</b>	<b>76</b>
<b>Usmonova Maxfirat Murodullo qizi</b>	
<b>Xolmuminova Ruqiya Eshmamat qizi</b>	
<b>ABU ABDULLOH AL-XORAZMIY HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI</b>	



Murodov G`ayrat Nekovich  
Buxoro davlat universiteti professori  
Shukurova Bahor Boltayevna  
TDTU Termiz filiali o'qituvchisi

## BADIY ADABIYOTNING TASVIR OB'EKTI, MA'RIFIY VA ESTETIK AHAMIYATI

**Annotatsiya:** Adabiyot san'atning bir turi, so'z san'ati sifatida hayotni so'z orqali tasvir etadi. Adabiyotda hayotning muhim voqeа-hodisalari, kishilarning o'ziga xos xislatlari, ruhiyati, orzu-umidlari, dardi, sir-asrorlari aks etadi. Shu tariqa, adabiyot turmushni o'rganish quroli bo'lib xizmat qiladi. Maqolada adabiyot nazariyasining asosiy xususiyatlari, adabiyotning tasvir ob'ekti (predmeti) va estetik ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** adabiyot, obrazlilik, bilish (evristik), badiiy-konseptual, kommunikativ, tarbiyaviy (didaktik), kompensatorlik (tasalli berish), badiiy bashorat, estetik funksiya.

Adabiyot so'zi keng va tor ma'noda qo'llaniladi. Keng ma'noda, umuman, chop etilgan kitoblarni, tor ma'noda esa badiiy adabiyotni anglatadi. Adabiyotning estetik ahamiyati - go'zallik qonunlari asosida borliqni o'zlashtirishidir.[1] Obrazlilik - har qanday san'at turining asosiy xususiyati. Obraz -ijodkor yaratgan inson dunyosining umumlashgan tasviri, voqelikning badiiy in'ikosi. Badiiy adabiyotdagi obraz "badiiy to'qima yordamida yaratilgan, estetik qiymat kasb etgan inson hayotining umumlashma va ayni paytda aniq manzarasi." [2]

Badiiy adabiyotning jamiyat hayotidagi o'rnnini tasavvur qilish uchun u bajarayotgan ijtimoiy vazifalar nimalardan iborat ekanligini bilish lozim. Badiiy adabiyotning eng muhim vazifasi – insonni komillik sari yetaklashidir. Bundan tashqari adabiyot bilish (evristik), badiiy-konseptual, kommunikativ, tarbiyaviy (didaktik), kompensatorlik (tasalli berish), badiiy bashorat, estetik funksiyalarni ham amalga oshiradi. Masalan, badiiy adabiyotning estetik vazifasi - insonda go'zallik tuyg'usini shakllantirishi, rivojlantirishi, nozik didni tarbiyalashi bilan belgilanadi. Badiiy adabiyotning inson aqli va ma'naviy kamolotiga kuchli ta'sir ko'rsatishi e'tiborga olinib, 2017-yil 12- yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan Farmoyishi e'lon qilindi [3].

Adabiyot san'atning bir turi, so'z san'atidir. Badiiy adabiyot hayotni so'z orqali tasvir etadi. Adabiyotda hayotning muhim voqeа-hodisalari, kishilarning o'ziga xos xislatlari, ruhiyati, orzu-umidlari, dardi, sir-asrorlari aks etadi. Shu tariqa, adabiyot



turmushni o'rganish quroli bo'lib xizmat qiladi. Yozuvchi turmushni, fakt va hodisalarni o'rganadi, ulardan zarur xulosalar chiqaradi. Ana shu xulosalarni jonli obrazlar vositasida ifodalaydi. Demak, badiiy adabiyot dunyoni badiiy o'zlashtirishdan iboratdir [4].

Badiiy adabiyot, ayni paytda, dunyoni o'zgartirish quroli damdir. Buyuk yozuvchilar jamiyatning olg'a intilishiga hamisha yordam bergenlar. Badiiy adabiyot o'quvchining hissiyoti va shuuriga kuchli ta'sir etadi. Umuman, badiiy adabiyotning ma'rifiy va estetik adamiyati nihoyatda kattadir. Bu hodisani chuqur his qilish uchun akademik Izzat Sultonning "Klassik adabiyotning ma'rifiy va tarbiyaviy adamiyati" nomli maqolasini sinchiklab o'rganib chiqish kerak.

. Badiiy asarlarning mohiyatini to'g'ri anglash va adabiyot hodisalariga baho berish uchun, dastavval, badiiy adabiyot haqidagi fanni, ya'ni adabiyotshunoslik fanlarini bilish lozim. Aks holda, kishi adabiy hodisalarni to'g'ri baholay olmasligi ehtimoldan uzoq emas. Shuning uchun adabiyotshunoslikning bir qismi bo'lgan adabiyot nazariyasi alohida to'xtalish joizdir.

Adabiyot nazariyasi so'z san'atining mohiyati, tabiat, o'ziga xos xususiyatlari, taraqqiyot qonuniyatlarini, kishilik jamiyati rivojidagi rolini tadqiq qiladi, badiiy asarlarni tahlil qilish tamoyillari va unga baho berish me'yorlarini belgilab beradi. Adabiyot nazariyasi hayot falsafasiga asoslanib, butun bir davr va zamonlarning so'z mahsuloti, muayyan asarlarning tahlili hamda tarixiy-adabiy jarayonlarni o'rganish orqali nazariy xulosalar chiqaradi. Adabiyot nazariyasi, birinchi galda, realistik adabiyot, romantik adabiyotning taraqqiyot yo'llari, mohiyati va tajribalari haqida babs yuritadi. Adabiyot nazariyasi badiiy adabiyotning obrazliligi, xalqchilligi, tipikligi, pafosi va boshqa masalalarini tekshiradi, adabiy asar unsurlari (shakl va mazmun mutanosibligi, mavzu va g'oya, syujet, konflikt, kompozitsiya, badiiy til xususiyatlari, she'r ilmi) haqida fikr yuritadi, adabiy turlar va janrlar, adabiy oqim, ijodiy metod va uslub, an'ana va yangilik kabi masalalarni tadqiq etadi. Adabiy asar tuzilishini puxta bimay turib badiiy adabiyot haqidagi qarashlarni chuqur o'rganib bo'lmaydi.

Adabiyotda til, kompozitsiya, ohang, ritm kabilar vositasida badiiy obraz yaratiladi. Bunday vositalarning jamul jamisiz adabiy asar yashay olmaydi. Shu sababli bu vositalarning jami - til, ritm, ohang, kompozitsiya badiiy adabiyot "tili"dir. Biroq nutq adabiyotning qurilish materiali, birinchi elementi, asosidir. Shunga ko'ra, badiiy adabiyot "so'z san'ati" deb ham yuritiladi.

Adabiyot so'z vositasi bilan obraz yaratganligi sababli san'atning boshqa turlariga nisbatan hayotni va insonni mumkin qadar to'laroq ifodalash imkoniga ega. Haqiqatan ham badiiy adabiy san'atning boshqa turlariga nisbatan tasvir imkoniyatining kengligi va sintetik xarakteri bilan ajralib turadi. Chunonchi,



adabiyotni san'atning makon bilan bog'liq turlari - rassomlik va haykaltaroshlikka qiyoslab ko'raylik. To'g'ri, badiiy adabiyot ko'rgazmalilik va yorqinlik jihatidan haykaltaroshlik va rassomlik bilan bahslasha olmaydi. Haykaltarosh va rassom predmetning ko'zga tashlanib turadigan jihatlarini yaqqol aks ettiradi. Kishilarning ichki kechinmalarini, xarakterini, odamlararo muomala-munosabatlarning bir zuminigina kartina yoki haykalda turli-tuman tashqi harakatlar vositasida ifodalaydi, xolos. So'z san'atkorining esa bu borada imkoniyatlari nihoyatda katta: adabiy asarda qahramonning tashqi ko'rinishi, ichki kechinmalari, u yashagan muhit - insonning zohiriylari va botiniy jihatlari (fikr-o'yлari, his-hayajonlari, tuyg'ulari, orzu-tilishlari kabilari) mufassal ifodalananadi. G. E.Lessing "Leokoon yoki tasviriy san'at va poeziyaning chegarasi haqida" nomli asarida ta'kidlashicha, makon bilan bogliq san'atda, asosan, figura, ya'ni predmet, hodisa, shaxsni badiiy ifodalash, poeziyada harakat, ya'ni kishilarning ichki dunyosi va tashqi muhitidan yuz beradigan xattiharakatlarini aks ettirish bosh masala bo'lib turadi. G.E.Lessing shunday deb yozgan: "Tasviriy san'at insonning tana a'zolarini, shu orqali uning harakatlarini tasvirlaydi. Adabiyot harakatlarni va u orqali inson tanasi harakatini ifodalaydi"[4]

Adabiyotning tasvir ob'ekti (predmeti) va vazifalari Inson - san'at va adabiyotning bosh predmeti, tasvir ob'ekti. Ammo bu ham o'ziga xos tarixga ega san'at paydo bo'lishi bilanoq inson uning asosiy predmeti qilib V.G.Belinskiyning uqtirishicha, san'atning barcha turlarida, xususan, qadimgi hind poeziyasida tabiat ilohiyashtirilgan, birinchi galda o'simliklar, ilonlar, qushlar, sigirlar, fillar va boshqa hayvonpar ko'rsatilgan. Odam esa tabiatga tobe, yordamchi kuch sifatida berilgan. San'at taraqqiyotining navbatdagi bosqichi - qadimgi misr mifologiyasida bahaybat hayvonlar va xudolar obrazlari orasida inson qiyofasi ham ko'rina boshlagan. Faqat qadimgi yunon san'atidan boshlab inson san'at asarining bosh predmeti bo'lib xizmat qilgan. V.G.Belinskiyning fikricha, antik adabiyotda yaratilgan xudolar - ideal odam obrazi, insonni lohiylashtirishdan boshqa narsa emas. Gomerining "Iliada", "Odisseya" asarlari, Esxil, Sofokl va Evripid tragediyalari, Aristofan komediyalari badiiy tafakkur tarixida insonni san'atning bosh qahramoni qilib olishi jihatidan ilk buyuk kashfiyotlar bo'ldi. Shundan boshlab, inson san'atning asosiy tasvir ob'ekti bo'lib qoldi. Ulug' san'atkorlarni eslaganimizda, daf'atan ular yaratgan adabiy qahramonlar yodimizga tushadi. Chunonchi, Gomer deganda - Axilles, Gektor, Odisseya; V.Shekspir deganda - Gamlet, kirol Lir, Otello, Romeo, Juletta, Makbet; Alisher Navoiy deganda - Farhod, Shirin, Dilorom, Iskandar, Majnun, Layli, Bahrom; L.Tolstoy deganda -Andrey Bolkonskiy obrazlari ko'z oldimizga keladi.

Gomer davridan bizning zamonomizgacha badiiy adabiyot juda uzoq va benihoya murakkab tarixiy jarayonlarni bosib o'tdi, ammo har doim inson uning diqqat markazida turdi. Biroq bundan badiiy asarda insondan boshqa hech narsa



tasvirlanmas ekan-da, degan bir tomonlama xulosa chidarmaslik kerak. Chunki adabiyotda insondan tashqari tabiat, hayvonot dunyosi, buyumlar va boshqalar ham tasvirlanadi. Ammo ular ham, albatga, inson bilan bog'liq, holda beriladi.

Inson adabiyotda butun murakkabligi, yaxlitligi bilan aks etadi. Adabiyotning markazida inson - his qiluvchi, fikrlovchi, harakat qiluvchi, O'z atrofini qurshab olgan tashqi dunyo bilan bog'langan kishi turadi, xolos. Shunga ko'ra, adabiyotni insonshunoslik deb tushunish lozim. Shunday qilib, yozuvchi o'z asarida butun voqelik va murakkab hayotiy munosabatlarni konkret inson hayoti manzaralari orqali badiiy ifodalaydi. Adabiyotning tasvir ob'ekti- voqelik, hayot; tasvir predmeti - inson va uning vazifasi - kishilarga ma'rifat va estetik tarbiya berishdan iborat. Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, badiiy asar qahramoni kitobxon qalbini hayajonga solmasa, hayotiy masalalarni ifodalamagan bo'lsa kuzatilgan maqsadga to'la erishib bo'lmaydi. Asar kitobxonlarga ma'naviy oziq berishi, yozuvchi ularni qiziqtiradigan muammolarni tasvirlashi lozim. Chunonchi, badiiy asar fabulasi hayotiy voqeа asosida tiklansa ham, bu hayotda qanday bo'lsa, shundayicha ko'chirish kerak, degani emas. Aksincha, Abdulla Qahhor ta'biri bilan aytganda, hayotdan aynan ko'chirish kitobdan ko'chirishday gap. Asarga sinch vazifasini bajargan hayotiy voqeа muallif tomonidan qayta ishlanishi, so'ng boyitilgan, aniqlashtirilgan va yozuvchining ijodiy prinsiplariga muvofiqlashtirilgan holda o'quvchilar hukmiga havola etilishi lozim. Jumladan, Shukur Xolmirzayev yozadi: "Bir zamonlar, hozirgi kunda ham ba'zan, shunday hikoyalarni o'qir edim: bir qiz bir yigitni sevadi, keyin yigit vafosiz chiqipti, keyin qiz uning yuziga... Yoki, bir yigit bir qizni seva turib, eskilik sarqiti yo'liga ko'ndalang bo'lgani uchun uni yenga olmay, boshqaga uylanipti, keyin o'sha qizni ko'ripti – ikkisi ham pushaymon... Yoki, yomon odam bilan yaxshi odam haqidagi hikoyalarni aytmaysizmi... Xullas, sanayversam, ado qilolmayman" Darhaqiqat, voqeani quruq bayon qiluvchi lavhalarning "hikoya degan narsa bilan aloqasi juda kam ekan, ular shunchaki ermak uchun yozilgan yoki umuman adabiyotni tushunmaslik oqibatida paydo bo'lgan mahsulotlar ekan"<sup>[5]</sup>

San'at kitobxonni zavqlantirishi, unga behad quvonch, ishtiyoq, ilhom baxsh etishi lozim. San'at go'zallik qonuniyati asosida ish tutadi. Bundan, san'atda faqat go'zal - ijobiy narsalar aks etar ekan, degan yanglish xulosaga kelmaslik kerak. Chunki, san'at asarida xunuk narsalar ham aks etadi. Ammo o'ta yaramas hodisalar, shaxslar, qiliqlar go'zal tasvirlanadi. Bu mutlaqo tabiiy: kitobxon hayotni to'g'ri tushunishi va unda o'z o'rnini aniqlab olishi uchun hayotdagi go'zallikni ham, xunuklikni ham chuqr bilib olishi darkor. Bu masalada kitobxonga san'at asari juda qo'l keladi. San'at - tarbiya quroli. U insonning ong-shuuriga kuchli ta'sir etib, uni go'zallik ruhida tarbiyalaydi.



Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon "Adabiyot nadir?" nomli maqolasida adabiyotning ahamiyati haqida to'xtalib shunday deb yozgan: "Hech to'xtamasdan harakat qilib turgan vujudimizga, tanimizga suv-havo naqadar zarur bo'lsa, maishat yo'lida har xil qora kirlar ila kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa — millat yashar. Adabiyoti o'Imagan va adabiyotining taraqqiysiga chalishmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydan, fikrdan mahrum qolib, sekin-sekin inqiroz bo'lur... Adabiyot chin ma'nosi ila o'Igan, so'ngan saralgan, o'chgan, yarador ko'ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg'on, o'tkir yurak kirlarini yuvadurg'on toza ma'rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yopyg' va ravshan qiladirk'on, chang va tuproqlar to'Igan ko'zlarimizni artur tozalaydirg'on buloq suvi bo'lg'onlikdan bizga g'oyatda kerakdir..."[6] Adabiyotning vazifasi mana shundan iborat.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. G. Xalliyeva "Adabiyotshunoslik" O`quv qo'llanma Toshkent – 2017 5-bet
- 2.L.I.Timofeev. "Osnovi teorii literature", Moskva, 1971, str. 62-63.  
[www.listos.biz/filologiya/nikolaev-a-i-osnovy-literaturovedeniya/vidykhudojestvennyx-obrazov](http://www.listos.biz/filologiya/nikolaev-a-i-osnovy-literaturovedeniya/vidykhudojestvennyx-obrazov)
- 3.O'z R Prezidentining "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida" gi F-4789-sonli Farmoyishi // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
4. T. Boboyev Adabiyotshunoslik asoslari Darslik Toshkent -2002
- 5.Xolmirzayev Sh. "Hikoya haqida" "Sharq yulduzi", 1971. № 1
- 6.Cho'lpon. "Adabiyot nadir". T. "Cho'lpon" nashriyoti, 1994, 36—37 betlar

